



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я **ПРЕПОДАВАНИЕ**
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2021-yil. 5-son

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

IKROM OTAMUROD **70** YOSHDA!

Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

3-bet

Til, alifbo, imlo: muammoga ilmiy
yechim zarur



Folklorshunoslik

9-bet

Piskent dostonchilik maktabi va Berdi
baxshi haqida yangi ma'lumotlar



Tahlil

20-bet

"Maymun yetaklagan odam"
hikoyasida mifologik ramzlar



Tadqiqotlar

48-bet

Chet til grammatikasining
ilmiy talqini



К юбилею писателя

80-bet


Рыцарь польское литературы



Научные исследования

83-bet

Функционирование устойчивых
словесных комплексов в эпистолярном
наследии А.С.Пушкина



Akmal Saidov, akademik:

***Ikrom Otamurod** kangul so'zini jon-u dilidan sevadi, mudom kangulga sayr etadi va kangulda yashaydi. Hayoti hamda ijodida kangulga sadoqat ko'rsatib kelayotgani uchun u hatto "Kanglum" degan samimiy kunya (laqab) ham ortirib olgan. Bu ham shoirning "kanglu" dard ne'matiga boy, o'zi esa xokisor "ahli dard"lardan biri ekanining ajib bir tasdig'idir. Zero, shoir yozganidek:*

*Kanglum, mendan bo'lak kiming bor sening,
Kanglum, sendan boshqa mening kimim bor!
Ne desang deguvchi – yolg'izim mening,
Ne aytsam aytguvchi – o'zing xokisor.*



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 5-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Ozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMUNQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulxumir MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2022.11.05. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₄, Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garnituras. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

ООО "ЕКО TEXTILE PRODUCT" bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Uchena t., Katta Xirmon-tepa va Shiriin kunchalari chorrahasi kesishmasi, 47 "A"uy. Buxorima №: 12 S. Adadi: 3000.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING I SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Baxtiyor MENGLIYEV. Til, alifbo, imlo: muammoga ilmiy yechim zarur 3

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Dilfuza PO'LATOVA. Ruslyzabon guruhlarda bosh bo'lak - eganing ifodalanishini klaster texnologiyasi orqali tushuntirishning o'ziga xos afzalliklari 5

Muharram KAMOLOVA. Mumtoz matnlar bilan ishlash usullari 7

FOLKLORSHUNOSLIK

Mamatqul JO'RAYEV. Piskent dostonchilik maktabi va Berdi baxshi haqida yangi ma'lumotlar 9

METODIK TAVSIYA

Xo'jamurod JABBOROV. Dehqonchilikka oid terminlarni o'quvchilarga o'rgatish 11

Anadjan BALTAYEVA. Adabiyot darslarida o'quvchilarga badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashni o'rgatish 13

Abdulaziz SHARIPOV. Talabalarga chet til leksikasini o'rgatishda nutq faoliyati turlarining ahamiyati 15

Nargiza BABANIYAZOVA. Use of ICT in teaching foreign languages 16

TAHLIL

Shoira NORMATOVA. O'zbek nasrida gender mavzusining shakllanish bosqichlariga bir nazar 18

Bahodir JOVLIYEV. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida mifologik ramzlar 20

Gulruxbegim RAVSHANOVA. Shoir hajviyotining takomil tadriji 22

Muxayyo RAYXONOVA. Borliqda inson o'rni va uning vazifalari muammosi 23

Saida MAKSUMOVA. Tog'ay Murod asarlarida grammatik takror orqali ekspressivlikning ifodalanishi 25

Qonaqbay TURDIBAYEV. Davr ruhiyatini tasvirlashda lirik qahramonning o'rni 26

Nilufar SULTONOVA. Badiiy iqtibosning adabiyotdagi o'rni 28

G'ayrat URAZBAYEV. Isajon Sulton hikoyalarida mavzu va muammo ifodasi 30

TARJIMASHUNOSLIK

Shamsiddin YODGOROV. Toledo tarjima maktabi vakillarining Qur'on tarjimasini bog'liq ilmiy faoliyatiga tanqidiy nazar 32

Farida SAFAROVA. Translation of confectionery terminology through transcription and transliteration 34

TADQIQOTLAR

Sarvar MAXMUDOV. Malaka oshirish jarayonini innovatsion-variativ yondashuv asosida takomillashtirish 36

Ikromjon HABIBJONOV. Soliq-bojxona terminlari tizimi 38

Halima AHMEDOVA, O'g'lonoy XUDAYNAZAROVA. Frazeologizm - olamni ko'rish, his etish va anglashning lingvomadaniy usuli 40

Gulnoza KURBANOVA, Muharram XAFIZOVA. Shifobaxsh o'simliklarning ilmiy va xalq tilidagi nomlari 42

Nigina RASULEVA. Xitoy tarmoq (Internet) adabiyotining takomil bosqichlari 44

O'ral XOLIJOROV. Ta'limiy korpusda so'z ma'nolari izohiga doir ma'lumotlar bazasini shakllantirish 46

Sayyora SAMIYEVA. Chet til grammatikasining ilmiy talqini 48

Shohida ABDULLAYEVA. Tilshunoslikda leksikografik-tipologik muammolar 50

Zaxro URUNOVA. O'zbek tili "defektologiya" terminologik maydonining semantik-tarkibiy tuzilishi 51

KICHIK TADQIQOTLAR

Feruza MURATOVA. "Devonu lug'otit turk" asarida "non" atamasi 53

Lobar MARDONOVA, Sohiba SAIDMURODOVA. "Mironshoh Mirzo" romanining tarixiy-badiiy aspektidagi tahlili 55

Nazira YANGIBAYEVA. "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida imlo masalasining yoritilishi 56

Go'zal ZAKHIDOVA. "Mehmon" so'zining ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv tahlili 57

Dilfuza DJUMAMBETOVA. Ingliz tili stilistikasini o'qitishda milliy-madaniy yondashuv 59

Oybek ESHBAYEV, Nasiba MULLADJANOVA. Effective use of synchronous & asynchronous communication tools in assessing speaking and writing 61

Mahfuza TUYCHIYEVA. Adabiy ta'limda o'quv materialini taqdim etish talablari 64

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Topshiriq. Gap tartibining ikki tilda ifodalanishiga misollar keltiring.

GAPNING IFODALANISHI

O'zbek tilida

1. Men bugun do'stim-ni uchratdim.
2.
3. Biz kitob o'qishni o'rganishimiz kerak.
4.
5. Shoir Erkin Vohidov haqida suhbatlashdik.

Rus tilida

1.
2. Гулнара принесла книгу на занятие.
3.
4. Акмал исправил свои ошибки карандашом.
5.

Demak, gapning sintaktik qatlami tahlil qilinganda gapda ega yoki kesimning muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. A.G'ulomov va M.Asqarovalar bu haqida shunday deydi: "Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil etadi: ular gap konstruksiyasining asosidir, markazidir – gapdagi ikki uyushtiruvchi markazdir. Lekin bosh bo'laklarning yolg'iz o'zi ham mustaqil gapni tashkil qiladi, biroq ba'zi o'rinlarda ularning o'zidan to'liq fikr ifodalanmaydi". Bu olimlar egani hokim tarkibning grammatik markazi, shuningdek, uni tobe tarkibdagi bosh bo'lakka – kesimga ham hokimdir, deb ta'kidlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1976.
2. Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1984.

Muharram KAMOLOVA,

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 2-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MUMTOZ MATNLAR BILAN ISHLASH USULLARI

8-sinf ona tili darsligida o'quvchining o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlashini mustahkamlash maqsadida berilgan bir qator matnlar borki, ulardan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish, matndagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

O'qish savodxonligi ko'nikmalari talabiga ko'ra:

- 1) matnda berilgan ma'lumotlarni olish;
- 2) ma'lumotlarni talqin qilish va uyg'unlashtirish;
- 3) matn yuzasidan mulohaza yuritishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Mumtoz matnlar oddiy matnlardan tubdan farq qiladi. Oddiy matnlarda faqat bir tomonlama mazmun ilgari surilsa, mumtoz matnlarimizda ikki xil: zohiriy va botiniy mazmun aks etadi.

8-sinf Ona tili darsligida Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi "Talab vodiysi" ta'rifi keltirilgan matnni misol tariqasida oladigan bo'lsak, matn tahlili yuzasidan birinchi bosqich matnda berilgan ma'lumotlarga ega bo'lish uchun, dastavval, matn bilan tanishib, undagi so'zlar ma'nosini aniqlab olish kerak bo'ladi:

*Chun talab vodiysig'a qo'ysang qadam,
Ollinga har dam kelur yuz ming alam.
Har dam anda yuz malolat yuzlanur,
Har nafas ming sa'b holat yuzlanur...*

Zohiran ushbu matn orqali Talab vodiysi va undagi mashaqqatlar haqida tasavvur hosil bo'ladi. Lekin Talab vodiysi tushunchasi haqida o'quvchi tasavvurga egami? Asar nomidan ham bu parchaning boshdan oxirigacha majozga asoslanganini bilish qiyin emas. Talab vodiysi chin oshiqning dostonidagi bosib o'tilishi lozim bo'lgan yetti bosqichdan dastlabkisi. "Ma'rifiy-badiiy adabiyotda Haqqa yetishish yo'lida yetti maqom, yetti bosqich ajratiladi. Bu o'rinda yetti raqamining tanlanishi ham bejiz emas. Boisi azal-azaldan dunyodagi barcha musulmon xalqlarida bu raqam sehrli, ulug' allomalarimiz amal qilgan naqshbandiya tariqatida esa yetti raqami ushbu tariqatning ramzi sifatida qabul qilingan. Ustozlari izidan borgan Mir Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da vodiylarni: talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr-u fano tarzida nomlab, shu bosqichlardan o'tishi lozim bo'lgan solik har bir maqomning talablarini bajarib, uning xususiyatlariga moslashmog'i zarur hisoblangan"¹.

Shariatdan tariqatga o'tishda, mo'mindan solik darajasiga ko'tarilishda birinchi maqom Talab vodiysidir. Bu vodiyya mo'minni komil inson sari intilish, Haqni bevosita tanish ishtiyoqi yetaklaydi.

*Istamak ranji ko'gilni zor etar,
Topmomog'lig' ruhni afgor etar.
Ranj-u ko'shish sanchibon jismingg'a nesh,
Dardi noyob aylabon joningni resh.*

Istamoqlik azobi solikning ko'nglini zor etadi, lekin topa olmaslik ruhni abgor etadi. Bunda jonni kuydirish mahrumlik, vaslga erishish noma'lumlik bo'lib, mashaqqat va kulfatlar jismga nish sanchib pora-pora qiladi. Lekin noyob durni qo'lga kiritish istagida bo'lgan solik uchun asosiy talab dunyo asboblari tark etishdir. Chunki talab maqomiga o'tish solikdan:

*Har nekim g'ayri talabdur tashlamoq,
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.
Qolmasa olam matoidin jihat,
O'zga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifat.*

Bu maqomda solikdan o'z tilagiga aloqador bo'lmagan barcha narsalardan voz kechish, faqat shu maqsad sari intilish, bunda hech narsadan qaytmaslik, hayiqmaslik talab etiladi:

*Gar yo'lunni tutsa yuz sher-u palang,
Bo'lgay oldingda nechukkim mo'ri lang.
Ajdahodin yetmagay ko'nglungga ranj,
O'yla bo'lmish bo'lg'ay ul mash'uf ganj.*

"Talab maqomidagi solik yo'lini yuz sher-u arslonlar to'ssa, ular bir cho'loq chumoli maqomida, agar xazina (ishq)ga erishsa, ko'nglida ajdaho (nafs)ning xavfi bo'lmaydi. Uning uchun barcha eshiklar ochilib, to'siqlar olinadi. Kufr yoki imon bu yo'lga kirgan kishi uchun maslak emas, balki asl yo'lining to'siqlaridan boshqa narsa emasdir".²

*Chun eshik ochildi ne kufr-u ne din,
Ichkari kirgach qutulding barchadin.
Kufr-u imon rohravg'a kesh emas,
Asl yo'lda bandi rohe besh emas.*³

Matn yuzasidan mulohaza yuritish o'quvchi uchun ancha mushkul. Matnda ilgari surilgan g'oyani anglash uchun o'quvchidan matn tarkibidagi so'zlar ma'nosini aniqlash, bayt mazmunini o'zida hosil bo'lgan tushunchalar asosida izohlab berish talab etiladi. Buning uchun baytda ilgari surilgan mazmunni tushuntirish ikki bosqich asosida amalga oshiriladi:

- 1) talqin qilish;
 - 2) uyg'unlashtirish (o'zaro bog'lash).
- O'quvchi talqin qilish bosqichida:
- bayt mazmunidagi yashirin mazmunni anglashi;
 - nazarda tutilgan asosiy maqsadni tushunishi;
 - matn qismlari orasidagi ko'z ilg'amas aloqani aniqlashi;



– matnda ochiq holatda berilmagan ma'lumotlarni ajratib olishi lozim.

O'quvchida bu ko'nikmani shakllantirishda quyidagi innovatsion metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq:

– "So'z bag'ridagi ma'rifat" metodida sharhlangan baytlarda ilgari surilgan g'oyalar har bir guruh ishtirokchisi tomonidan talqin qilinadi;

– "4*4" metodida to'rt guruhdan bir nafardan o'quvchi bir-birini takrorlamagan to'rtta baytni leksik va grammatik hamda g'oyaviy tahlil qilishi talab etiladi. Bu topshiriqlarni guruhlar o'zaro yoki juftlikda bajarishlari ham mumkin. Har bir ishtirokchiga berilgan baytlar bo'yicha quyidagi to'rt talab qo'yiladi:

- berilgan lirik parchani vazn talablari asosida ifodali o'qish;
- baytdagi izohtalab so'zlarni sharhlash;
- baytda ilgari surilgan bosh g'oyani aniqlash;
- parchadagi leksik birliklar va grammatik munosabatlarni aniqlash.

Matndagi ma'lumotlarni o'zaro bog'lash bosqichida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) so'z yoki baytlarda ilgari surilgan mazmunni anglab, baytlarni zanjir usulida bir-biri bilan uzviylikda tahlil qilish;

2) xulosa chiqarish uchun ikki yoki undan ortiq baytlardagi ma'lumotlarni birlashtirish;

3) "Parchada mazmun", "Xulosangiz qanday?", "Mumtoz matn jilosi (baytda keltirilgan tushunilishi qiyin so'zlar izohlanadi)" kabi topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchiga mazmunni anglashdagi mashaqqatlarni yengishda ko'maklashish lozim.

Ishonchimiz komilki, mumtoz matnlar tahlilini o'qish savodxonligi va ta'limdagi innovatsion metodlarning baholanadigan kompetensiyalari asosida amalga oshirish bayt mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni o'quvchiga yetkazishdagi mushkulliklarni yengishda yordam beradi.

¹ R.Vohidov, H.Ne'matov, M.Mahmudov. So'z bag'ridagi ma'rifat. – Toshkent, 2001. 98-bet.

² Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent, 1991. 395-bet.

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. – Toshkent, 1996. 214-bet.